

ILMIY TERMIN TUSHUNCHASI TAHLILI

Ruzmetova Indira - UrDU magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada termin tushunchasi, uning mohiyati, ilmiy termin, xalq terminologiyasi kabi muammolarga to‘htalingan va mustaqillik yillarida atamashunoslar tomonidan olib borilgan ishlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Termin, terminologiya, ilmiy termin, xalq terminologiyasi, ilmiy matn, lisoniy vositalar.

Termin va terminologiya haqida gap borar ekan, avvalo termin tushunchasining mohiyatini to‘g‘ri belgilash lozim. Bunda bir tomondan ilmiy termin va xalq terminologiyasini, ikkinchi tomondan, terminni oddiy, umum iste’moldagi so‘zdan farqlash lozim bo‘ladi.

Ilmiy termin - bu ilmiy til (nutq), ilmiy matnlarning lug‘aviy boyligi, vositasidir. Ilmiy termin ilmiy sohalarning talab va ehtiyojini qondirish uchun yaratiladi. Shu sababli haqiqiy ilmiy termin u yoki bu fan sohasiga aloqador ilmiy tushuncha va tasavvurlarni to‘la, aniq va ixcham ifodalashi kerak bo‘ladi.

Termin va terminologiya haqida gap borar ekan, avvalo ilmiy terminlar tizimi ko‘zda tutiladi. Har qanday ilmiy termin ilmiy matn yoki ilmiy nutqda paydo bo‘ladi va o‘sha lisoniy muhit, makonda yashaydi.

Biror bir narsa, hodisa haqida ikki xil ilmiy tushuncha va tasavvurlar, xalqona tushuncha va tasavvur bo‘lishi mumkin. Birinchi holda bunday tushunchani ilmiy termin ifodalasa, ikkinchi holda bu tushunchani xalq tilidagi alohida so‘zlar ifodalaydi. O‘zbek xalqi tilida ko‘p sonli xalqona terminlar mavjud bo‘lib, ularning boy materiallari hali yetarli ravishda to‘plangan va o‘rganilgan emas. Ayrim tadqiqotlarning ma’lumotlariga qaraganda, Qashqadaryo aholisi tilida *sharq* tushunchasi: *kunchiqish*, *kunchiqar*, *kunchiqish bet*, *kuntugish*, *kuntug ‘ar*, *kuntutish bet* va hokazo; *janub* tushunchasi: *adoq*, *etak*, *to ‘man bet*, *kun botish*, *kun botar*, *qibla,botish*, *botish bet*, *qibla bet* so‘zlari bilan ataladi. Sug‘orish bilan aloqador bo‘lgan *suvdarak*, *suvto ‘da*, *qoqsuv*, *ko ‘chat suv*, *suvto ‘siq*, *suvband*, *suvlots* kabi xilma-xil so‘zlar mavjud.¹

Xalq terminlariga xos muhim xususiyat ularning ma’lum ilmiy me’yorlarga solinmaganligi, ular tizimida variantdorlikning kuchliligi, turli hududlarda turlicha shakkarda uchrashidir.

Qayd qilingan xalqona terminlar xalq geografiyasi, dehqonchiligi lug‘aviy me’yorlari bo‘lib, xalq tilida yaratilgan va asrlar davomida o‘sha tilda qo‘llanib kelgan. Demak, ularning yashash muhitni xalq tili, xalq amaliy nutqidir.

Imiy terminlarning mohiyatini, paydo bo‘lishi va yashash sharoitini belgilaydigan asosiy mezon esa ilmiy lisoniy muhit va ilmiy nutqdir. Ammo ilmiy tilda (nutq, matn)da uchraydigan barcha lisoniy vositalar ilmiy termin hisoblanavermaydi. Chunki ilmiy matnda ilmiy terminlardan tashqari umumiste’mol so‘zlar, so‘z va gaplarni

¹ Э.Бегматов. Мустақиллик даври атамалари. Т.2002.Б.7-8.

o'zaro bog'lashga xizmat qiluvchi grammatik vositalar, tinish belgilari, ba'zan modal ma'nolarni ifoda qiluvchi leksemalar ham uchraydi. Odatda, tilga olingan lisoniy vositalar fanning barcha tarmoqlari nutqi va barcha nutqiy uslublar uchun mushtarak xizmat qiladi. Demak, ular ilmiy tushuncha va tasavvurlarni ifodalamagani uchun ilmiy terminologik tizimiga kirmaydi.

Qayd qilinganlardan ma'lum bo'ladiki, termin va terminologiya haqida gap borganda ilmiy terminlar ko'zda tutiladi. Demak, mana shu ma'noda tilshunoslikning terminologiya sohasi (atamashunoslik) har qanday so'z va terminlarni emas, balki ilmiy terminlarni tadqiq qilish, ularni tartibga solish, me'yorlash ishi bilan shug'ullanadi.

Xalq terminlari (kasb-hunar leksikasi deb ham ataladi) oddiy xalq so'zlashuv tilining, xalq lahja va shevalarining, ijtimoiy jargonlarning, lug'aviy boyliga va normasidir. Shu bilan birga, xalq terminlari milliy til ilmiy terminologiyasini boyitishning, unga milliy-lisoniy ruh berishning asosiy manbalaridan biridir. Odatda, xalq terminologiyasidan ilmiy terminologiya tizimiga olinadigan so'zlar biror ilmiy tushunchani ifodalashga xoslanadi, unga ilmiy terminlik maqomi beriladi. Masalan, o'zbek tilidagi texnikaviy terminlar tarkibida *qabirga*, *og'iz*, *tirnoq*, *bo'yin*; *musht*, *qulqoq*, *panja*, *quti*, *kurakcha*, *pichoq*, *taroq*, *qozon*, *qoshiq* kabi ilmiy terminlar uchraydi va ular mashina, asbob-uskunalarining biror bir detali, qismini anglatish uchun xoslashtirilgan, maxsuslashtirilgan so'zlardir. Ular endi ilmiy matnda oddiy leksemalik ma'nosidan uzilgan, ilmiy termin sifatida ma'nosni aniq, lo'nda, bir ma'nolidir.

Ma'lumki, ilmiy terminlar tizimi adabiy til lug'aviy tarkibining ajralmas qismi sifatida fan va texnika taraqqiyoti, jamiyatdagi o'zgarishlar bilan zinch bog'liqdir. Ayniqsa, jamiyat siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-ma'naviy, diniy-mafkuraviy sohadagi o'zgarishlar tilda, xususan, uning lug'aviy tizimida ma'lum o'zgarishlar bo'lishiga olib keladi. Sho'rolar hukmronligining barham topishi, O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi o'zbek tilida qayd qilingan jarayonlarning yuzaga kelishi uchun sabab bo'ldi.

Dunyodagi ko'pgina milliy tillarning rivojlanish tajribalari hamda tilshunoslar olib borgan kuzatish natijalari shuni ko'rsatganki, jamiyat siyosiy hayoti va davlat tizimida bo'ladigan yangilanishlar ona tili mavqeini va nufuzini himoya qilib chiqiladigan harakatlarga bois bo'ladi va natijada adabiy til me'yorlaridagi ikkilanishlarga olib keladi. O'zbek adabiy tili hayotida 80-yillar oxiri va 90-yillar boshida ana shunday jarayon yuz berdi. Ammo ushbu lisoniy jarayon o'zbek tilida 20-30 yillarda yuz bergen jarayondan keskin farq qiladi. Agar 20-30 yillarda o'zbek tilining imloviy, lug'aviy va terminologik hamda adabiy talaffuz me'yorlarini yangidan belgilash, yaratish muammosi ko'ndalang bo'lib turgan bo'lsa, 90-yillar o'zbek adabiy tilida qayd qilingan me'yorlar shakllangan hamda turg'unlashgan edi. Demak, gap bu davrda adabiy til me'yorlarini yangidan yaratish, tubdan o'zgartirish haqida emas, balki bu me'yorlarning o'zbek tilining qonuniy ijtimoiy mavqeini tiklash, tilga milliy-lisoniy ruh berish, undagi notabiyy, milliy til ruhiga singmaydigan, sun'iy holatlarni bartaraf qilish nuqtai nazaridan baholash ustida borardi.

80-yillar oxiri va 90-yillarda o'zbek adabiy tili me'yorlarida yuz bergen o'zgarish va ikkilanishlar, asosan, o'zbek tilining lug'aviy tizimida, ayniqsa uning terminologiya sohasida yuz berdi. Bu tabiiy holdir. Chunki, birinchidan, ijtimoiy-siyosiy hayot,

jamiyat va davlat tizimi, fan va texnika taraqqiyoti, ma'naviy-mafkuraviy qarashlarga oid tushunchalar ilmiy terminlarda o'z ifodasini topgan edi, ikkinchidan qayd qilingan tushunchalarni ifoda qiluvchi terminlarning aksariyati «ruscha-baynalmilal so'zlar» deb yuritib kelingan, rus tili orqali kirgan lug‘aviy birliklar edi.

Sho‘rolar mafkurasi davrida til siyosati va lisoniy zug‘um, asosan, ijtimoiy hayotda rus tilining o‘rni va rolini cheksiz kuchaytirish, unga «ikkinchi ona tili» maqomini berish yo‘lidan bordi. Milliy tillarni ijtimoiy vazifa doiralaridan siqib chiqarish esa (ayniqsa, ilmiy tadqiqot, fan-texnika, pochta-telegraf, xalqaro kommmunikatsiya, moliyaviy, targ‘ibot-tashviqot, rasmiy muloqat doirasi, anjuman va ilmiy yig‘inlar, ta’lim-tarbiya, harbiy ta’lim va b.) rus tilining «buyuk ta’siri», ixtiyoriy «ikkitillilikning yorqin namunasi» tarzida ta’riflandi. Mana shunday til siyosati va lisoniy sharoit milliy tillar lug‘aviy tizimiga, ayniqsa uning terminologiyasiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu ta’sir termin tanlashda so‘zning ruscha muqobiliga ustunlik berish, uni rus tilidaga shaklida o‘zgarishsiz yozish va talaffuz qilishda ko‘rindi. Natijada sho‘rolar davrida shakllangan o‘zbek tili terminologiyasi fondining katta qismini rus tilidan yoki u orqali olingan so‘zlar tashkil qilar edi. Shu sababli 80-yillar oxiri o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish uchun bo‘lgan kurashlarda rus tilining ta’sirini chegaralash, o‘zbek tilining qonuniy ijtimoiy mavqeini tiklash, til lug‘at tarkibini o‘rinsiz o‘zlashgan so‘zlardan tozalash asosiy maqsad qilib olindi. Natijada, sho‘rolar davrida bosilgan bir qator izohli, ikki tilli hamda terminologik lug‘atlarning, so‘zliklarning ba’zi ilmiy manbalarning lug‘aviy tarkibini tanqidiy tahlil qiluvchi anchagina maqolalar e’lon qilindi, turli yig‘inlarda bu haqda ko‘plab gapirildi. Gapdan amaliy ishga ham o’tildi. Bu ayniqsa matbuot sahifalarida rus tili orqali kirgan so‘zlarga o‘zbekcha muqobil topish harakatlarida namoyon bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Э.Бегматов. Мустақиллик даври атамалари. 2002. Тошкент.
2. О.Жуманиев. Ўзбек тилидаги герман тиллари ўзлашмалари. Т.1987.
3. Э.Бегматов. Ўзбек тили тарихий лексикологияси. Т. Фан.1981.
4. Махмудхўжа Беҳбудий. Амир Дониёлнинг қабрдан ёзмиш хати // Шўро, 1912. – №23.